



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### TARBIYA FANIDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING AFZALLIKLARI

**Niyozova Moxichexra Abdushukurovna**

*Toshkent iqtisodiyot va soliq texnikumi katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarbiya fani tarbiya konsepsiyasi tarbiya metodologiyasi, tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish umuman tarbiya haqida ma’lumot berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *interfaol usullar, texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, ma’naviy, g‘oyaviy, nafasat tarbiyasi.*

Hozirgi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida o‘quv-tarbiya ishlarini takomillashtirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar yangicha yondashuv asosida tashkil etilib, ilgari alohida o‘qitilgan “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Dinlar tarixi”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlar yagona “Tarbiya” fani sifatida joriy etildi.

Mazkur fan o‘quvchilarda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat, insonparvarlik, bag‘rikenglik, halollik kabi fazilatlarni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, “Tarbiya” fanini o‘zlashtirish va uni samarali o‘qitish metodikasini takomillashtirish zaruriyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- fanning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘zlashtirish;
- o‘qitish jarayonida ilg‘or, zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- tarbiya masalalariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini muntazam o‘rganib borish;
- inson va jamiyat hayotida tarbiyaning o‘rni va ahamiyatini to‘liq anglash;
- fan vositasida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali metodlari va texnologiyalarini egallash;
- o‘qituvchilarda individual pedagogik tajribani shakllantirish va boyitish.

Shu jihatdan, “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bugungi kunda pedagogik jarayonning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ma’naviy yetuklik va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan “Tarbiya” fanini o‘qitishda quyidagilarga e’tibor berish va ularni o‘zlashtirish zaruriyat hisoblanadi: davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish; o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



kompetentligini shakllantirish; umumta'lim fanlarini o'qitishning printsiptial yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash.

Bugungi kunda, fan-texnika taraqqiyoti innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qaror qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lish hayotiy talablarni qo'yimoqda.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasida "Tarbiya" fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muommalarni hal etishga yo'naltiriladi. Konsepsiyada belgilangan vazifalar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy va jahondagi ilg'or tajribalar mamlakatimizdagi ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda amalga oshiriladi. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Tarbiya shaxsda jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiya fanining metodologik asoslarini ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlar, tarbiya asoslari va manbalari, tarbiya qonuniyatlari, metodlari va texnologiyalari tashkil etadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish-ta'lim jarayonida texnologiyalarni qo'llash asosida o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishishning muhim yo'nalishlari hamda eng maqbul yo'llari mutanosibligida qo'llanuvchi samarali texnik vositalar uzviyligida aniq g'oya va konsepsiyalar majmuiga bog'liq bo'lgan pedagogik jarayondir. Tarbiya fanini o'qitishda ta'limga texnologiyalarni joriy etish, o'qitishning sifat-samaradorligini ta'minlash, qisqa vaqt ichida ko'proq ma'lumot yetkazish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirish va amaliy faoliyatning samaradorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunda o'quvchilarga muayyan bilimlarni yetkazib berish, ular faoliyatini nazorat qilish va egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni baholashga alohida e'tibor beriladi. Fanni o'qitishda o'qituvchi-pedagogning mahoratini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va uzluksiz tarzda kuzatib borishdan iborat. Ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini boyitish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlashni davrning o'zi taqozo etmoqda. Tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktika-ta'lim nazariyasi hisoblanadi.

Didaktik o'yinlar esa o'quvchilarning ijodiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini jamlashga yordam beradi, shuningdek xotirani takomillashtiradi. Didaktik o'yin





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



jarayonida o'quvchilar o'zlari sezmagan holda juda ko'p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar. Didaktik o'yinning tarbiyaviy maqsadi- mustaqillik irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai- nazarlar, ma'naviy estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni jamoaga kirib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

O'yinli texnologiyalar turli shaklda bo'lsada, ularning barchasi o'z mazmuniga ko'ra yagona maqsad sari yo'naltirilgan, ya'ni ular o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy bilimlardan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash, ijtimoiy faollikni shakllantirish, yetuk axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, teran va sog'lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo'lgan komil inson shaxsini kamol toptirishdan iborat vazifani hal etadi.

O'qituvchi-pedagog avval o'quvchilarni individual, so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki, o'quvchi didaktik o'yin mashg'ulotlarida faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik hamda o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Davlatimiz tomonidan ta'lim sohasiga o'quvchilarning intellektual salohiyati, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlari tafakkurini rivojlantirish, egallangan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari, amaliy ko'nikma va malakalarini hosil etishga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun o'quv-tarbiya jarayonining barcha imkoniyatlari, pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalari didaktik vosita va usullaridan samarali foydalanish zarurati davlat ta'lim siyosatida muhim o'rin tutadi. Umumta'lim maktablari ta'lim tizimidagi didaktik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirishga, mustahkamlashga o'quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi umummilliy ko'nikmalarini shakllantiruvchi masalalar majmuini yechishga qaratiladi.

“Tarbiya” fanini o'qitishda yuqori sinflarning dars jarayonidagi faolligini oshirishda ularni jamoaviy ishlashga, fikr almashishga undaydigan interfaol usullardan samarali foydalanish mazkur fanning sifat va samaradorligini oshiradi. Tarbiya darsini vijdon, insof, rostgo'ylik kabi muhim tushunchalarni anglatishdan boshlash kerak. 6-sinf o'quvchilari uchun rostgo'ylik haqida bilib olish muhim hayotiy ko'nikma bo'ladi. Vijdonan yashash, halol va rostgo'y bo'lishi inson uchun nihoyatda muhim.

Xulosa qilib aytganda umuman, o'qituvchi tarbiya darsida o'quvchini komil inson sifatida farovon yashashi uchun zarur bo'ladigan eng muhim sifatlarni bosqichma- bosqich o'rgatib borishi tavsiya etiladi. “Tarbiya” fani orqali o'quvchini ma'naviy jihatdan yetuk shaxsga aylantirish mumkin. Zero, mazkur fan imkoniyatlari o'quvchida uning uchun umri davomida har daqiqa zarur bo'ladigan axloqiy sifatlarni rivojlantirishga sharoit yaratib berishi lozim.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son Qarori.
3. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010.
4. Pirnazarova A. Tarbiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va unda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlar//Yangi O‘zbekiston talabalari axborotnomasi 2022.y.

